ZAMONAVIY TURKIYA TASHQI SIYOSATIDA "YUMSHOQ KUCH"

G'oziyev Ravshan Rustamovich
TDShU "Xalqaro munosabatlar" kafedrasi dotsent v.b.
ravshangoziev18@gmail.com
Rahmonova Marjona Bobir qizi
TDShU "Xalqaro munosabatlar" yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuchning ahamiyati o'rganilgan. Tashqi siyosatda yumshoq kuchning ortib borayotgan o'rni va ta'siri tahlil qilinib, xalqaro munosabatlarning serqirra tomonlarini, bugungi jahon siyosatida Turkiyaning o'rni ko'rib chiqiladi. Turkiya o'zining strategik joylashuvi, madaniy va tarixiy omillari yumshoq kuch vositalarini keng va samarali foydalanishini ko'rsatadi.
Kalit so'zlar: yumshoq kuch, TIKA, Anadolu agenti, Diyanet, Turkiya burslari

Abstract: This article examines the importance of soft power in Turkey's foreign policy. The increasing role and the influence of soft power in foreign policy will be analyzed, and the multifaceted aspects of international relations and Turkey's role in today's world politics will be considered. Turkey's strategic location, cultural and historical factors demonstrate its wide and effective use of soft power.
Keywords: soft power, TIKA, Anadolu Agency, Diyanet, Turkish scholarships

KIRISH

XX asrning o'rtalaridan boshlab xalqaro munosabatlarda yangi yo'nalish "yumshoq kuch" nazariyasi rivojlandi va u ta'sir o'tkazishning an'anaviy kuch va zo'ravonlik hamda senksiyalar orqali majburlashdan tashqari, o'z tomoniga jalb qilishning turli iqtisodiy, madaniy va gumanitar ta'sir kuchi yordamida, qo'yilgan maqsadlarga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Shu bois, "yumshoq kuch" nazariyasi zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlar va madaniyatlar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishda muhim o'rin egalladi.

Xalqaro munosabatlarda kuch – bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni muvozanatlashtirishga imkon beradigan va tashqi siyosatdagi qaror qabul qilish mexanizmlarini tahlil qilishda tez-tez foydalaniladigan tushuncha hisoblanadi. Qattiq kuch va yumshoq kuch tushunchalari esa davlatlar tashqi siyosatining strategiyalarida o'z aksini topmoqda.

Turkiya o'zining geosiyosiy joylashuvi, dini, madaniyati va tarixi, harbiy qudratining ulug'vorligi va umumjahon qadriyatlariga mos keladigan qadriyatlari tufayli yumshoq kuchdan yertarlicha tashqi siyosatda qo'llab kelmoqda. Shu ma'noda Turkiya o'zining tashqi siyosatini yangiladi va yumshoq kuchga asoslangan faol siyosatga o'tdi. Turkiya tashqi siyosatini transmilliy institutlari va tashkilotlari yordamida samarali olib borayotganligi ko'plab ekspertlar tomonidan e'tirof etilayotganligi, yumshoq kuch orqali Turkiya erishayotgan yutuqlar mazkur maqolada ochib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot metodi yumshoq kuch nazariyasini Turkiya tashqi siyosati misolida o'rganish hisoblanadi, unda tarixiylik, qiyosiy-tahlil, tizimli tahlil, kontent tahlili, statistik ma'lumotlardan keng foydalanilgan.

MUHOKAMA:

Olimlarning yumshoq kuch haqidagi fikrlari ko‘plab nazariyalar va tadqiqotlarga asoslangan. Yumshoq kuch, asosan, iqtisodiy, madaniy va diplomatik ta’sir orqali o‘zaro aloqalarni kuchaytirish va muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosat strategiyasi hisoblanadi. Misol uchun, Jozef Nye yumshoq kuchni “biror narsani qilishga qiziqtirish qobiliyati” sifatida ta’riflaydi[1]. U, shuningdek, yumshoq kuchning davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda qanday rol o‘ynashini, masalan, madaniyat, ta’lim va siyosiy qadriyatlar orqali ko‘rsatadi. Boshqa olimlar esa yumshoq kuchning global muammolarni hal qilishda, masalan, iqlim o‘zgarishi yoki inson huquqlari masalalarida ahamiyatini ta’kidlaydi[2]. Tashqi siyosat – mamlakatning umumiy manfaatlar va qadriyatlarga asoslangan ittifoq va koalitsiyalar qurish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu kuchlar orqali yumshoq kuch siyosati olib boriladi. Yana bir asosiy omil mamlakatning yumshoq kuch salohiyati uning siyosiy tizimidir. Bu usuldan foydalanmoqchi bo‘lgan mamlakat erkin, adolatli, shaffof va demokratik jamiyat qura olishi lozim[3]. Shu bois ham zamonaviy davrda “yumshoq kuch” – bu boshqalarni o‘z tomoniga jalb qilish va ularni “siz xohlagan narsani xohlashga undash” bilan bog‘liq bo‘lgan kuch - yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda[4].

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunga kelib mamlakatlarning “yumshoq kuch”lari reytingida o‘zgarishlar kuzatilmoqda va G‘arb davlatlarining yaqqol gegemonligiga Sharq davlatlarining harakati ta’sir etmoqda: AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi mamlakatlarga Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Turkiya va boshqa davlatlarining yetib olishi va ba’zi jihatlarda o‘tib ketayotganligini ko‘rishimiz mumkin[5]. Bu mintaqaviy kuch markazlarini xalqaro siyosatning muhim ishtirokchisi sifatida rolini ortib borayotganligi bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, global kuch markazlari orasidagi keskin raqobat endilikda mintaqaviy kuch markazlarining jonlanishi bilan yanada raqobat ortmoqda. Global raqobatda o‘z o‘rni va roliga ega bo‘lib borishga harakat qilayotgan davlatlardan biri Turkiya respublikasi hisoblanadi.

Yevropa va Osiyoni geografik jihatdan bog‘lab turgan Turkiya uzoq vaqtlar g‘arbga yo‘naltirilgan tashqi siyosat olib borgan dunyoviy davlat hisoblanib[6] kelindi. Geografik jihatdan ustunlik unga katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu haqda tadqiqotchi Jeylan shunday yozadi: “Turkiya o‘zining geografik chuqurligi, iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati jihatidan global kuch markazlari o‘rtasidagi muvozanatga ta’sir eta oladigan geosiyosiy kuchga ega. Bu shunindek dunyodagi muhim muammolar chorrahasidir”[7]. Dunyo chorrahasida joylashganligi Turkiya-ning aktiv tashqi siyosat yuritishini va dunyo kuch markazlari orasida muvozanat saqlashga harakat qilishini ta’minladi. Ma’lumot o‘rnida shuni aytish joizki, Turkiyaning dunyo bo‘ylab 246 ta diplomatik vakolatxonalari bo‘lib, u ushbu statistikada dunyoda 4-o‘rinda turadi[8].

Turkiyaning tashqi siyosati so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. Prezident Rejep Tayyip Erdo‘g‘an va hukmron Adolat va taraqqiyot partiyasi (AKP) rahbarligida Turkiya G‘arb bilan an’anaviy ittifoqlarini saqlab qolgan holda yanada qat’iy va mustaqil tashqi siyosat o‘rnatishga harakat qildi. Tadqiqotchilar Erdog‘on va uning partiyasini tashqi siyosiy

---

[1] Nye, Joseph. S. (1990). Soft Power. Foreign Policy, 80, pp.153–171.
[2] Askari, M.U. (2021). Significance of Soft Power for Pursuing Foreign Policy Objectives. Journal of Indian Studies, 7(1), pp.123-138.
[3] Nye, J.S. (2004). Soft Power: The Means to Succeed in World Politics, New York, Public Affairs, p. 47.
[4] Nye, J.S. (2004) o‘sha manba, p.32.
[5] Askari, M.U. (2021), o‘sha manba.
[6] Philip Robins (1991). Turkey and the Middle East. London: Royal Institute of International Affairs and New York: Council on Foreign Relations Press, pp.77-83.
[7] Ceylan Mehmet Akif (2019), “Türkiye’nin Siyasi Coğrafyası”, Türkiye Beşeri ve İktisadi Coğrafyası (Ed. Nuran Taşlıgil, Güven Şahin), Nobel Akademik Yayıncılık, Ankara, s.154 (ss.149-192).
[8] Andrew England (2020). “UAE vs Turkey: the regional rivalries pitting MBZ against Erdoğan”. Financial Times. October, p.4.

faoliyatlarini "neousmanizm", "sharqqa qaratilgan siyosat", "siyosiy islom", "turk modeli", "turkiy dunyo" va boshqa shu kabi paradigmalar asosida tadqiq qila boshladi.
Neousmanizm paradigmasi Turkiyaning tashqi siyosatini tushuntirishda eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalardan biridir. Ushbu yondashuv Turkiyaning Usmoniylar imperiyasi tarixiy merosiga asoslangan holda, mintaqaviy va global nufuzini oshirishga intilishini ifodalaydi. Neousmanizm tarafdorlari Turkiyaning Yaqin Sharq, Bolqon va Markaziy Osiyo bilan aloqalarini mustahkamlashga harakat qilayotganini qayd etadilar. Tadqiqotchi Ahmet Davuto'g'lu o'zining "Stratejik Derinlik" kitobida shunday yozadi: "Turkiya o'z tarixiy merosi va geostrategik joylashuviga asoslangan holda global siyosatda faol ishtirok etishi zarur. Usmoniylar imperiyasining sobiq hududlari bilan mustahkam aloqalarni tiklash Turkiyaning tabiiy strategik maqsadlaridan biridir"[9]. Neousmanizm siyosati doirasida Turkiya Liviyada, Suriyada va Kavkaz mintaqasida faol harakat qildi. Ayniqsa, 2020-yilgi Tog'li Qorabog' mojarosida Ozarbayjonga ko'rsatilgan harbiy va diplomatik yordam, Suriyada ash-Shara boshchiligida muholifat guruhning hokimiyatga olib kelishda asosiy rol o'ynashi Turkiyaning 90-yillar va undan oldingi yillardagi Turkiya emasligini ko'rsatmoqda.

NATIJALAR:
Turkiyaning ichki va tashqi siyosiy tajribasi ko'pincha "turk modeli" deb ta'riflanadi. Ushbu model dunyoviylik, islomiy qadriyatlar va demokratik institutlarning uyg'unligini aks ettiradi. Ayniqsa, arab dunyosidagi inqiloblar fonida Turkiya o'zini siyosiy va iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli model sifatida taqdim etishga intildi. Tadqiqotchi Shadi Hamid fikricha, "Turk modeli demokratiya va islom uyg'unligi tamoyili asosida shakllangan. Bu model ayniqsa arab dunyosidagi islomiy partiyalar uchun ilhom manbai bo'ldi"[10]. Biroq, 2016-yilgi davlat to'ntarishiga urinish va undan keyin kuzatilgan avtoritar tendensiyalar bu modelga bo'lgan ishonchni pasaytirdi. Shunday bo'lsa-da, Turkiya musulmon olamida jozibadorligini hali hamon saqlab turibdi.
Turkiya, yumshoq kuchga ega bo'lish va ushbu kuchni samarali tarzda ishlatish borasida juda katta potensialga ega bo'lgan mamlakatdir. Turkiyaning qo'lida mavjud bo'lgan yumshoq kuch, shakli va mazmuni jihatidan boshqa mamlakatlardan farq qiladi. Buning sababi, Turkiya o'zining boy tarixi, madaniyati, diniy va etnik xilma-xilligi, strategik joylashuvi va iqtisodiy salohiyati bilan o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Turkiya "XXI asr" universitetining ilmiy maslahatchisi Bulent Shenerning fikricha, "yumshoq kuch"ning asosiy manbalari ommaviy axborot vositalari, universitetlar, nodavlat tashkilotlar, shuningdek, savdo, madaniyat, shaxsiy aloqalar, sayohat va ommaviy sport ham ta'sir o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi[11].
Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuch institutlari "Anadolu Agency", "Diyanet", TIKA, Turkiye burslari, Turk kinosi, Turkiya turizmi katta rol o'ynaydi. Anadolu agentligi 1920-yilda tashkil etilgan bo'lib, Turkiyaning eng yirik va nufuzli axborot agentliklaridan biridir. U nafaqat mamlakat ichki siyosiy va ijtimoiy jarayonlarini yoritadi, balki xalqaro miqyosda Turkiyaning tashqi siyosatiga oid xabarlarni ham keng tarqatadi. Yaqin Sharq va Afrikada Anadolu Agency faoliyati sezilarli bo'lib, u orqali Turkiya o'z pozitsiyasini mustahkamlashga intiladi. Anadolu Agencyning asosiy vazifalaridan biri Turkiyaning global miqyosdagi ta'sir doirasini kengaytirishdir[12].
Diyanet va unga bog'liq tashkilotlar Turkiyaning "yumshoq kuch" siyosatining markaziy vositasi sifatida Yevropa, Afrika va Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirishda davom etmoqda.

[9] Ahmet Davutoglu. (2009). Stratejik Derinlik. Küre Yayinlari; 2nd edition, p.584.
[10] Shadi Hamid. (2016). Islamic Exceptionalism: How the Struggle Over Islam Is Reshaping the World. St. Martin's Press, p.366.
[11] Şener B. Dış Politikada Yumşak Güç Olgusu. Politik-Sosyal-Kültürel Araştırmalar Merkezi, No. 21, 2014, s. 23–34.
[12] Özçağlayan, M., & Boudchar, O. A. (2022). The Impact of Anadolu Agency News as a News Source on Arab Media and Arab Public Opinion. TAM Akademi Dergisi, 1(2), pp.96-125.

Turkiya bu tashkilot orqali ta'lim dasturlarini kengaytirish, masjidlar va diniy markazlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi. Uzoq muddatda bu Saudiya Arabistoni va Misr kabi an'anaviy islomiy yetakchi markazlar bilan ta'sir doirasini kengaytirish yo'lidagi raqobatni kuchaytirishi mumkin[13].

TİKA (Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi) 1992-yilda, ayniqsa Turkiy Respublikalar va tarixiy va madaniy jihatdan bog'langan mamlakatimizning tabiiy geografiyasida mustahkam hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. TIKA o'z faoliyat geografiyasini kengaytirib bormoqda: 2002 yilda 12 ta bo'lgan dasturlarni muvofiqlashtirish idoralari sonini 2011 yilda 25 taga, 2012 yilda esa 33 taga ko'paytirdi. Bugungi kunda Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi 61 davlatda 63 ta dasturlari asosida 170 ta davlatda faoliyat yuritmoqda[14].

Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı (YTB) asosan xorijiy mamlakatlarda yashovchi turkiy xalqlar va qardosh jamoalar bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu tashkilot turkiy davlatlar bilan madaniy va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, talabalar almashinuvi dasturlarini tashkil etish va xalqaro talabalar uchun grantlar taqdim etish orqali Turkiyaning yumshoq kuch siyosatini amalga oshiradi. YTBning eng muhim loyihalaridan biri "Türkiye Bursları" dasturi bo'lib, bu orqali dunyoning turli davlatlaridan kelgan minglab talabalar Turkiyada bepul ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu dastur orqali Turkiya nafaqat ilmiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki mamlakatning ijobiy imijini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ta'lim orqali shakllangan ushbu bog'liqlik keyinchalik Turkiyaning xalqaro siyosatdagi ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi[15].

Yumshoq kuch tushunchasi bilan turizm faoliyatlari o'rtasida ham o'zaro bog'lanish mavjud bo'lib, mamlakatlar o'z tashqi siyosatlarida yumshoq kuch unsurlarini ijobiy tarzda qo'llashlari natijasida mamlakatga keladigan sayyohlar soni ortmoqda[16]. Turkiyaning turizm salohiyati uning mintaqadagi jozibadorligini sezilarli darajada oshirib, yumshoq kuch manbai sifatida muhim rol o'ynamoqda. Uch tomonini dengizlar o'rab turgan va noyob geografik joylashuvi boylik manbai sifatida Turkiyaning yumshoq kuchini yanada kuchaytiradi.

XULOSA:

Umuman olganda, Turkiyaning tashqi siyosati pragmatizm, qat'iyatlilik va strategik faollik aralashmasi bilan ajralib turadi, chunki Turkiya bir vaqtning o'zida G'arb va Sharq ortasida muvozanat saqlay olishi, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda amaliy harakat olib borishi va o'z milliy manfaatlari uchun strategik hamkorlikni va iqtisodiy ko'rsatkichlarni rivojlantirishga majbur. Aynan ushbu tendensiyalar Turkiyaning hozirgi kundagi zamonaviy tashqi siyosat konsepsiyasini belgilab beradi. Turkiya yumshoq kuch salohiyatiga ega ekanligi, tashqi siyosatida muhim rol o'ynamoqda. Turkiya tashqi siyosatida yumshoq kuch institutlari "Anadolu Agency", "Diyanet", TIKA, Turkiye burslari, Turk kinosi, Turkiya turizmi kabi muhim tashkilotlari, yo'nalishlari va tarmoqlari katta ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbaş Z., Tuna H. (2012). Bir Dış Politika Aracı Olarak Yumuşak Gücün Turizm Sektörüne Etkisi: Türkiye Örneği Üzerinden Bir Değerlendirme. Finans Politik ve Ekonomik Yorumlar Dergisi, 49 (571), s. 5-6.
2. Ahmet Davutoglu. (2009). Stratejik Derinlik. Küre Yayinlari; 2nd edition.

[13] Pavlos I. Koktsidis. (2022). An Overview of Turkey's Soft Power Apparatus: Doctrine, Agents and Operational Dimensions. Institute of Studies for Politics and Democracy, pp.26-28.
[14] TIKA Faaliyet 2019, https://tika.gov.tr/upload/sayfa/publication/2019/TIKAFaaliyet2019ENGWebKapakli.pdf
[15] Burcu Sunar Cankurtaran. (2015). Türk Dış Politikasında 'Diaspora Diplomasisi Açılımı've Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı. Türk Dış Politikası ve Kamu Diplomasisi, pp.91-133.
[16] Akbaş Z., Tuna H. (2012). Bir Dış Politika Aracı Olarak Yumuşak Gücün Turizm Sektörüne Etkisi: Türkiye Örneği Üzerinden Bir Değerlendirme. Finans Politik ve Ekonomik Yorumlar Dergisi, 49 (571), s. 5-6.

3. Andrew England (2020). "UAE vs Turkey: the regional rivalries pitting MBZ against Erdoğan". Financial Times. October.
4. Askari, M.U. (2021). Significance of Soft Power for Pursuing Foreign Policy Objectives. Journal of Indian Studies, 7(1), pp.123-138.
5. Burcu Sunar Cankurtaran. (2015). Türk Dış Politikasında 'Diaspora Diplomasisi Açılımı've Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı. Türk Dış Politikası ve Kamu Diplomasisi, pp.91-133.
6. Ceylan Mehmet Akif (2019), "Türkiye'nin Siyasi Coğrafyası", Türkiye Beşeri ve İktisadi Coğrafyası (Ed. Nuran Taşlıgil, Güven Şahin), Nobel Akademik Yayıncılık, Ankara, ss.149-192.
7. Nye, Joseph. S. (1990). Soft Power. Foreign Policy, 80, pp.153–171.
8. Nye, J.S. (2004). Soft Power: The Means to Succeed in World Politics, New York, Public Affairs.
9. Pavlos I. Koktsidis. (2022). An Overview of Turkey's Soft Power Apparatus: Doctrine, Agents and Operational Dimensions. Institute of Studies for Politics and Democracy, pp.26-28.
10. Philip Robins (1991). Turkey and the Middle East. London: Royal Institute of International Affairs and New York: Council on Foreign Relations Press, pp.77-83.
11. Shadi Hamid. (2016). Islamic Exceptionalism: How the Struggle Over Islam Is Reshaping the World. St. Martin's Press.
12. Şener B. Dış Politikada Yumşak Güç Olgusu. Politik-Sosyal-Kültürel Araştırmalar Merkezi, No. 21, 2014, s. 23–34.
13. Özçağlayan, M., & Boudchar, O. A. (2022). The Impact of Anadolu Agency News as a News Source on Arab Media and Arab Public Opinion. TAM Akademi Dergisi, 1(2), pp.96-125.
14. TIKA Faaliyet 2019, https://tika.gov.tr/upload/sayfa/publication/2019/TIKAFaaliyet2019ENGWebKapakli.pdf
15.